

INGLIZ TILI MATERIALLARI ASOSIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA UMUMMADANIY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Baydjanova Dinora Karimovna –

Farg'ona davlat universiteti tayanch doktoranti

E-mail: dinarabayjanova1992@gmail.com / Tel.: (+998-91) 672-12-56

<https://orcid.org/0009-0004-9384-2166>

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada ingliz tili materiallari asosida bo'lajak o'qituvchilarda umummadaniy kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari yoritilgan. Tadqiqot davomida xalqaro ilmiy manbalar, zamonaviy pedagogik yondashuvlar va til ta'limiga oid ilg'or tajribalar tahlil qilindi. Muallif ingliz tili materiallari madaniyatlararo kommunikatsiya, tolerantlik, estetik did, muloqot madaniyati kabi kompetensiyalarni shakllantirishda muhim o'rin tutishini asoslaydi. Shuningdek, kompetensiyaviy, integrativ va madaniy yondashuvlar asosida dars jarayonini tashkil qilish zarurligi ilmiy-nazariy jihatdan asoslab beriladi. Maqola yakunida tegishli xulosalar va takliflar keltirilgan.*

***Kalit so'zlar:** ingliz tili materiallari, umummadaniy kompetentlik, bo'lajak o'qituvchi, madaniyatlararo kommunikatsiya, pedagogik-psixologik xususiyatlar.*

ПЕДАГОГИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ ОБЩЕКУЛЬТУРНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НА ОСНОВЕ МАТЕРИАЛОВ ПО АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ

***Аннотация.** В статье раскрываются педагогико-психологические особенности развития общекультурной компетентности у будущих учителей на основе материалов по английскому языку. В ходе исследования были проанализированы международные научные источники, современные педагогические подходы и передовой опыт в обучении иностранным языкам. Автор обосновывает значимость английского языка как инструмента формирования межкультурной коммуникации, толерантности, эстетического вкуса и культуры общения. Также обоснована необходимость интеграции культурного компонента в учебный процесс на основе компетентностного и интегративного подходов. В заключение даны соответствующие выводы и рекомендации.*

***Ключевые слова:** материалы по английскому языку, общекультурная компетентность, будущий учитель, межкультурная коммуникация, педагогико-психологические особенности.*

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL FEATURES OF DEVELOPING CULTURAL COMPETENCE IN FUTURE TEACHERS BASED ON ENGLISH LANGUAGE MATERIALS

***Abstract.** This article explores the pedagogical and psychological characteristics of developing cultural competence in future teachers through English language materials. The*

study analyzes international scientific sources, modern pedagogical approaches, and best practices in foreign language education. The author emphasizes the importance of English language content in fostering intercultural communication, tolerance, aesthetic appreciation, and communicative culture. The article also substantiates the necessity of integrating cultural components into the curriculum based on competency-based and integrative approaches. The study concludes with relevant findings and practical recommendations.

Keywords: *English language materials, cultural competence, future teacher, intercultural communication, pedagogical and psychological characteristics.*

KIRISH

Globalizatsiya jarayonining jadallashuvi va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining keng tarqalishi natijasida zamonaviy ta'lim tizimi oldida turgan asosiy vazifalardan biri – shaxsning umumiy madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish bo'lib qolmoqda. Ayniqsa, bo'lajak o'qituvchilarda umummadaniy kompetentlikni rivojlantirish zamonaviy pedagogik faoliyatning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Zero, o'qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki madaniy qadriyatlar targ'ibotchisi, yosh avlodning ma'naviy-ma'rifiy yetakchisidir [1].

Umummadaniy kompetentlik deganda shaxsning madaniyat, san'at, axloq, ijtimoiy munosabatlar, muloqot madaniyati va global jarayonlar haqidagi umumiy bilimlarga ega bo'lishi, ularni ijtimoiy hayotda ongli ravishda qo'llay olishi tushuniladi. Ushbu kompetentlik nafaqat shaxsiy taraqqiyot, balki professional faoliyatda ham muhim omil sanaladi [2]. Xususan, ingliz tili materiallari asosida umummadaniy kompetentlikni shakllantirish ikki yo'nalishda samarali bo'ladi: birinchidan, chet tilini o'rganish orqali boshqa xalqlar madaniyati bilan tanishish imkoniyati paydo bo'ladi; ikkinchidan, til materiallari orqali talabalar o'zining milliy madaniyati va qadriyatlariga tanqidiy yondashishni ham o'rganadilar [3].

Ta'lim mazmunini kompetensiyaviy yondashuv asosida yangilash jarayoni, ayniqsa, xorijiy tillarni o'qitishda integratsiyalashgan yondashuvni talab qiladi. Shu jihatdan, ingliz tili darslarida madaniy-ma'naviy komponentlarning ustuvorligi o'quvchilarda global fuqarolik, tolerantlik, muloqot madaniyati, madaniyatlararo anglashuv kabi sifatlarni shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi [4].

Pedagogik-psixologik nuqtai nazardan, umumadaniy kompetentlikni rivojlantirishda ingliz tili materiallarining didaktik, tarbiyaviy va kommunikativ imkoniyatlaridan keng foydalanish mumkin. Bu esa, o'z navbatida, bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy va shaxsiy jihatdan yetuk mutaxassis bo'lib shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, psixologik jihatdan talabalarda refleksiya, empatiya, tolerantlik kabi jihatlarni rivojlantirishda madaniy mazmundagi matnlar, roliklar, dramatzatsiyalar katta ahamiyatga ega [5].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.

Bo'lajak o'qituvchilarda umummadaniy kompetentlikni rivojlantirish so'nggi yillarda xorijiy ta'lim tizimlarida muhim pedagogik-psixologik yo'nalishlardan biri sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, ingliz tili materiallari orqali madaniy ko'nikmalarni shakllantirish, turli madaniyatlar haqida bilimlar berish va madaniyatlararo muloqotga tayyorlash xalqaro miqyosda dolzarb mavzu hisoblanadi.

Eng yetuk konsepsiyalardan biri bu – madaniyatlararo kommunikativ kompetensiya (intercultural communicative competence) modelidir. Mazkur model ingliz olimi Michael Byram tomonidan taklif etilgan bo'lib, u til o'rgatish jarayonini faqat kommunikativ maqsad emas, balki madaniy integratsiya jarayoni sifatida baholaydi. Byram o'z konsepsiyasida shaxsda quyidagi jihatlarni rivojlantirishni taklif etadi: madaniy tafovutlarga nisbatan ochiqlik, o'z madaniy qadriyatlarini anglash, boshqalarni tushunishga bo'lgan intilish, tanqidiy madaniy ong. Bu kompetensiyalar aynan ingliz tili materiallari orqali samarali shakllanishi mumkin [1].

Claire Kramersch esa o'zining "Language and Culture" asarida til va madaniyatning ajralmas bog'liqligini chuqur asoslab beradi. Uning fikricha, har qanday til o'z ichida madaniyatni ham olib yuradi – o'quvchilar ingliz tilini o'rganish orqali nafaqat lingvistik, balki sotsiokultural tafakkurni ham egallaydi [2]. Til materiallari orqali o'zga xalqlarning qadriyatlari, stereotiplari, urf-odatlar bilan tanishish, o'z madaniyatiga nisbatan tanqidiy qarashni shakllantirish mumkin.

Ingliz tili materiallari asosida umummadaniy kompetentlikni rivojlantirishda CLIL metodologiyasi (Content and Language Integrated Learning) alohida e'tiborga molik. D.Coyle, P.Hood va D.Marsh tomonidan ishlab chiqilgan ushbu yondashuv til

o'rganish jarayonini boshqa fan mazmuni bilan integratsiyalashni ko'zda tutadi [3]. Masalan, tarix, san'at, madaniyat, geografiya kabi fanlar materiallari ingliz tilida o'zlashtiriladi, bu esa til bilan birga madaniy kompetensiyani ham shakllantiradi.

Psixologik nuqtai nazardan, L.Vygotskiyning madaniy-tarixiy rivojlanish nazariyasi ham muhim ilmiy asoslardan biri bo'lib xizmat qiladi. Vygotskiyga ko'ra, shaxs taraqqiyoti – bu ijtimoiy va madaniy ta'sirlar asosida kechadigan jarayondir. Til esa madaniy axborotni uzatuvchi asosiy vosita bo'lib, o'quvchi uni o'zlashtirish orqali o'zining madaniy ongini ham shakllantiradi [4].

Yaqin yillarda O'zbekistonda ham ushbu masalalarga e'tibor kuchaymoqda. Nargiza Yusupova ingliz tilini aralash ta'lim texnologiyalari yordamida o'qitishda madaniy komponentlarning o'rnini tahlil qilib, ularni o'quv dasturlariga integratsiya qilish samaradorligini asoslab bergan [5]. Shu bilan birga, Kenjaboyev va Kenjaboyeva pedagogik deontologiya va kompetensiyalar tizimida madaniy jihatlarni ham asosiy sifatlardan biri sifatida ko'rsatadi [6].

Yuqoridagi tahlildan ko'rinadiki, ingliz tili materiallari asosida umummadaniy kompetentlikni rivojlantirish xalqaro miqyosda uzluksiz izlanayotgan masala bo'lib, turli nazariy yondashuvlar, didaktik modellar va psixologik qarashlar ushbu jarayonning ilmiy-metodik asoslarini shakllantirib bermoqda. Aynan shu yondashuvlar bo'lajak o'qituvchilarda global fuqarolik, tolerantlik va madaniy uyg'unlik kompetensiyalarini tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur tadqiqot metodologik jihatdan umumta'lim va pedagogika sohasidagi zamonaviy nazariy konsepsiyalar, shuningdek, til o'qitishning kommunikativ, madaniy va integrativ yondashuvlariga asoslanadi. Asosiy e'tibor ingliz tili materiallari asosida bo'lajak o'qituvchilarda umummadaniy kompetentlikni rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, metodologik yondashuvlar ushbu maqsadni kompleks tarzda ochib berishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning nazariy-metodik asosi sifatida quyidagilar belgilab olindi: a) madaniyatlararo kommunikativ kompetensiya nazariyasi; b) til va madaniyatning uzviy bog'liqligi haqidagi konsepsiya; d) CLIL (Content and Language Integrated Learning) metodologiyasi; e) madaniy-tarixiy rivojlanish nazariyasi.

Ushbu konsepsiyalardan kelib chiqib, tadqiqotda quyidagi metodologik yondashuvlar qo'llanildi: kompetensiyaviy yondashuv (bo'lajak o'qituvchining kasbiy faoliyatiga zarur bo'lgan bilim, ko'nikma, munosabat va qadriyatlarni aniqlash va rivojlantirishga qaratilgan yondashuv); integratsiyalashgan yondashuv (ingliz tili darslarida madaniyat, tarix, adabiyot, san'at kabi fanlararo elementlarni uyg'unlashtirish); madaniy kontekstda til o'rgatish yondashuvi (til materiallarida madaniy ma'lumotlarni aks ettirish va bu orqali madaniyatlararo anglashuvni rivojlantirish); tahliliy va taqqosloviiy metodlar (mavjud adabiyotlarni o'rganish, tahlil qilish, turli nazariyalar asosida taqqoslash); sistemali yondashuv (umummadaniy kompetentlikni kompleks pedagogik sifat sifatida qarash va uning tarkibiy qismlarini izchil o'rganish).

Tadqiqotda ilmiy-analitik uslub ustuvor bo'lib, mavjud nazariy adabiyotlar, metodik qo'llanmalar, ilg'or xorijiy tajribalar asosida mavzu chuqur o'rganildi. Shu bilan birga, ingliz tili darsliklari va o'quv-metodik materiallar mazmuni madaniy komponentlar mavjudligi nuqtai nazaridan o'rganildi. Asosiy e'tibor ingliz tili materiallarining o'qituvchilik faoliyatiga zarur bo'lgan madaniy bilimlar, sotsial-madaniy qadriyatlar va kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirishdagi salohiyatini tahlil qilishga qaratildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA.

Olib borilgan nazariy-pedagogik va psixologik tahlillar asosida ingliz tili materiallari asosida bo'lajak o'qituvchilarda umummadaniy kompetentlikni shakllantirish bo'yicha quyidagi asosiy natijalarga erishildi, jumladan:

Umummadaniy kompetentlikning mohiyati va tarkibi aniqlashtirildi. Bu kompetentlik shaxsning madaniy tafakkur, estetik did, axloqiy ong, madaniyatlararo muloqot ko'nikmalari, sotsial sezuvchanlik kabi sifatlarini o'z ichiga olishi belgilab olindi. Ushbu komponentlar ingliz tili materiallari asosida o'quv jarayonida bosqichma-bosqich shakllanishi mumkinligi isbotlandi.

Ingliz tili materiallari madaniy kompetensiyani rivojlantirishda samarali vosita ekanligi tasdiqlandi. Til materiallari orqali chet el madaniyati, qadriyatlari, turmush tarzi, urf-odatlarini, madaniy tafovutlar haqida tasavvurlar shakllantiriladi. Ayniqsa, CLIL metodologiyasi, madaniy kontekstda matnlar, roliklar,

dramatizatsiyalar, o'quv muhokamalari bu jarayonni samarali tashkil etishga xizmat qiladi.

Til va madaniyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlik didaktik jihatdan asoslab berildi. Ingliz tili darslarida madaniyatlararo kommunikatsiyani tashkil etish orqali o'quvchilar boshqa madaniyatni tushunishga, moslashishga va o'z madaniyatini anglashga o'rganadilar. Bu esa bo'lajak o'qituvchining global fikrlovchi, tolerant va kommunikativ shaxs sifatida shakllanishiga zamin yaratadi.

Umummadaniy kompetentlikni shakllantirishda psixologik omillar muhim ahamiyat kasb etishi aniqlashtirildi. Empatiya, tolerantlik, madaniy sezuvchanlik, madaniyatlararo noaniqlikni qabul qilish, reflektiv fikrlash kabi psixologik sifatlar aynan ingliz tili materiallari asosida madaniy interaktiv muhit yaratish orqali rivojlanadi.

Nazariy tahlil asosida integratsiyalashgan pedagogik yondashuv taklif etildi. Ushbu yondashuv kompetensiyaviy, madaniy va faoliyatga yo'naltirilgan metodlarni birlashtirgan bo'lib, u ingliz tili darslarining tarkibiga madaniyat, san'at, tarix, muloqot etikasi kabi elementlarni integratsiyalash orqali umumiy madaniy salohiyatni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ilg'or xalqaro tajribalarning (CLIL, ICC modeli, madaniy kontekstlar) o'quv jarayoniga moslashtirilgan variantlari aniqlab olindi. Bu tajribalar asosida darslarda interaktiv, reflektiv va kommunikativ uslublardan foydalanish bo'lajak o'qituvchilarning umumiy madaniy salohiyatini mustahkamlashda yuqori samaradorlikka ega ekani ko'rsatildi.

Ingliz tili materiallari asosida bo'lajak o'qituvchilarda umummadaniy kompetentlikni shakllantirish zamonaviy ta'lim jarayonining muhim pedagogik va psixologik vazifalaridan biri hisoblanadi. Mazkur yo'nalish bo'yicha olib borilgan nazariy tahlillar ko'rsatdiki, bu jarayonni samarali tashkil etish uchun nafaqat lingvistik bilimlar, balki madaniy va sotsial jihatlar ham didaktik mazmunga integratsiyalashgan bo'lishi lozim.

Avvalo, umummadaniy kompetentlikni rivojlantirishga oid xalqaro yondashuvlar, xususan, Michael Byramning madaniyatlararo kommunikativ kompetensiya modeli, Claire Kramshning til va madaniyatning o'zaro bog'liqligi

haqidagi konsepsiyasi, hamda CLIL metodologiyasi asosida bo'lajak o'qituvchilarda madaniy ong, empatiya, bag'rikenglik, muloqot madaniyati kabi kompetensiyalarni shakllantirish mexanizmlari tahlil qilindi.

Muhokama jarayonida aniqlanishicha, ingliz tili materiallari orqali xorijiy madaniyat bilan tanishish, o'z madaniyatini tahlil qilish, madaniyatlararo farqlarni anglash, shuningdek, kritik tafakkur asosida baholash kabi faoliyatlar bo'lajak o'qituvchilarda umumiy madaniy savodxonlik va tolerantlikni oshiradi. Bu esa ularning kelajakdagi kasbiy faoliyatida o'zga madaniyat vakillari bilan samarali muloqot qilish qobiliyatini mustahkamlovchi omil bo'lib xizmat qiladi.

Shuningdek, madaniy kompetensiyani rivojlantirishda faol metodlar va interaktiv yondashuvlar muhim rol o'ynashi ta'kidlanadi. Rolli o'yinlar, guruhli munozaralar, madaniy kollajlar, virtual ekskursiyalar, xalqaro loyihalar, podkastlar va bloglar orqali til va madaniyatni uyg'un holda o'rgatish umummadaniy kompetentlikni kuchaytiradi. Bunday metodlar madaniyatlararo sezuvchanlik, tanqidiy mulohaza va shaxslararo muloqotni rivojlantirishga imkon beradi.

Muhokama natijalariga asoslanib aytish mumkinki, ingliz tili materiallari asosida madaniy salohiyatni rivojlantirish – bu nafaqat til o'rgatish, balki global fuqarolik, ijtimoiy madaniyat, multikultural anglashuvni shakllantirishning asosiy yo'nalishidir. Bu jarayonni samarali tashkil etish uchun o'quv dasturlari, darsliklar, metodik qo'llanmalar va o'qituvchilar tayyorgarligi tizimli tarzda qayta ko'rib chiqilishi zarur.

XULOSA VA TAVSIYALAR.

Mazkur tadqiqotda ingliz tili materiallari asosida bo'lajak o'qituvchilarda umummadaniy kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik-psixologik asoslari chuqur nazariy tahlil qilindi. O'rganilgan adabiyotlar, xalqaro tajribalar va zamonaviy yondashuvlar asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

Umummadaniy kompetentlik – bu shaxsning ijtimoiy-madaniy ongini, axloqiy-estetik didini, madaniyatlararo muloqotga tayyorligini va tolerantlik xususiyatlarini o'z ichiga olgan murakkab kompetensiya hisoblanadi. Bu kompetensiyani rivojlantirish, ayniqsa, bo'lajak o'qituvchilar uchun muhim

ahamiyatga ega, chunki ular kelajakda madaniy qadriyatlarni tarbiyalovchi yetakchi kuchga aylanadi.

Ingliz tili materiallari madaniy bilimlar va sotsial ko'nikmalarni uzatishning samarali vositasi sifatida xizmat qiladi. Ular yordamida talabalar boshqa xalqlarning madaniyatini o'rganibgina qolmay, o'z milliy qadriyatlarini tahlil qilish, solishtirish va anglash imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Pedagogik yondashuvlardan kompetensiyaviy, integratsiyalashgan va madaniy-interaktiv metodlar eng samarali deb topildi. Ingliz tili darslarida CLIL, madaniy kontekstli topshiriqlar, interaktiv faoliyatlar orqali umumiy madaniyatni rivojlantirish imkoniyati keng.

Psixologik nuqtai nazardan, madaniy kompetensiyani shakllantirish talabalarning emotsional ongini, empatiyasini, sotsiomadaniy sezuvchanligini rivojlantiradi. Bu shaxsiy va kasbiy yetuklik uchun muhim psixologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Xalqaro ilmiy nazariyalar, xususan M.Byram, C.Kramersch, D.Coyle va L.Vygotskiylarning qarashlari asosida umummadaniy kompetentlikni chet tili materiallari orqali shakllantirishning ilmiy-nazariy modeli asoslab berildi.

Tadqiqot natijalariga tayanib, quyidagi amaliy va metodik tavsiyalar ilgari suriladi:

Ingliz tili darsliklari va o'quv dasturlariga sotsiomadaniy komponentlar, milliy va global madaniyatlar haqidagi materiallar tizimli ravishda kiritilishi zarur.

Chet tili o'qituvchilari tayyorlash dasturlarida madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan alohida kurslar yoki modul elementlari tashkil etilishi maqsadga muvofiq.

Interfaol metodlar – rolli o'yinlar, madaniy loyihalar, muloqot mashg'ulotlari, madaniyatlararo debatlar – keng foydalanish umumiy madaniyatni shakllantirishga samarali ta'sir ko'rsatadi.

Milliy va xorijiy madaniyatlarni taqqoslash asosidagi topshiriqlar orqali talabalarda tanqidiy fikrlash va madaniy ongni shakllantirish imkoniyatlari kengaytirilishi lozim.

Xalqaro loyihalar, virtual almashinuvlar, ingliz tilida madaniy bloglar yoki podkastlar orqali talabalarni madaniyatlararo muloqotga faol jalb etish kerak.

Oliy ta'lim muassasalarida pedagogik amaliyot jarayonida talabalar tomonidan madaniy-tarbiyaviy mashg'ulotlar tashkil etilishi ularning kompetensiyalarini real sharoitda mustahkamlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Byram, M. (1997). Teaching and assessing intercultural communicative competence. Clevedon: Multilingual Matters.
<https://www.multilingual-matters.com/page/detail/?k=9781853593772>
2. Kramersch, C. (1998). Language and culture. Oxford: Oxford University Press.
<https://global.oup.com/academic/product/language-and-culture-9780194372145>
3. Coyle, D., Hood, P., & Marsh, D. (2010). CLIL: Content and language integrated learning. Cambridge: Cambridge University Press.
<https://www.cambridge.org/core/books/clil/7540995FE5D70A44E1AC4E878B418D7E>
4. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in society: The development of higher psychological processes (M. Cole, V. John-Steiner, S. Scribner, & E. Souberman, Eds.). Cambridge, MA: Harvard University Press.
<https://www.hup.harvard.edu/books/9780674576292>
5. Yusupova, N. N. (2021). Klaster sharoitida ingliz tilini tezkor o'qitishning aralash ta'lim texnologiyalari. Science and Education, 2(3), 439–445.
<https://openscience.uz/index.php/sciedu/article/view/1216>
6. Kenjaboyev, A. E., & Kenjaboyeva, D. A. (2022). Pedagogik deontologiya va kompetentlik. Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences, 2(4), 812–818.
<https://orientalpublication.com/index.php/Oriental-Renaissance/article/view/274>